

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Mutaxassislikka kirish

MA'RUZA MATN

ANDIJON 2017-YIL

Diplomga ega bo'lish-bu hali tom ma'nodagi ziyoli emas. Ziyoli odam o'z tafakkur saviyasi, pok yuragi, ichki madaniyati bilan mutlaqo bo'lakcha inson bo'ladi.
Islom KARIMOV.

So'zboshi.

Ushbu kursda materiallarning o'zlashtirilishi uchun nimalar qilinishi lozim, o'zlashtirishni xisobga olish, talabalarni sinov imtixolarini o'tkazish va reyting ballarini to'plash haqida ma'lumot berish, talabalar o'quv tadqiqod va ilmiy tekshirish ishlarning asosiy mazmuni, ularning turmushi, madaniyati va dam olishini tashkil etish, mehnati va turmush nafosati singari soxalariga ham aloxida o'rin ajratiladi.

«Mutaxassislikka kirish» fani sizning kasbiy pedagogik o'quv predmetingiz bo'lib, uning 4 ta asosiy vazifasi bor.

1. Sizlarni o'qituvchining kasbiy faoliyatining ilmiy asoslari bilan tanishtirish.

2. Oliy o'quv yurtlarida o'quv mehnati bilan madaniyatini egallashingizga ko'maqlashish.

3. Keyingi o'quv semestrlarida boshlanadigan pedagogik amliyotni o'tashingizga yordamlashadi.

4. Asosiysi-mustaqil ravishda o'zingizda o'qituvchi shaxsiga kerak bo'lgan fazilatlarni shaqllantirishga, shuningdek o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlashga o'rgatish.

Bu fanning o'rganishning ketma-ketlik va mantiqiy tizimiga quyidagilar kiradi.

1. O'quv faniga kirish; maqsad, vazifa uning mehnati madaniyati, axborotlar to'plami.

2. O'zbekistonda ta'lim mazmuni va uning rivoji to'g'risidagi davlat tomonidan qabul qilingan xujjatlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: - Davlat ta'lim standarti: - Ta'lim to'g'risidagi qonun:

- I.A. Karimovning O'zbekiston Oliy majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqi «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori».

3. Jamiyat va davlatning o'qituvchilik shaxsiga qo'ygan talablari: - O'qituvchi mehnatining qadri, obro'si. - O'qituvchi shaxsini modeli.

G'arb va sharq mamlakatlarining buyuk mutafakkirlari va pedagoglarining o'qituvchi haqidagi fikrlari.

4. O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining tizimi, yo'llari va vositalari:

- Pedagogik oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayoni. - O'z-o'zini tarbiyalash o'z ustida ishlash.

A) Talabaning o'quv mehnatini madaniyati.

- Talabaning o'quv mehnati madaniyati haqida umumiy tushuncha.

- Shaxsiy ish texnikasi.
- Xotira va uning rivoji.
- O`quv semestri vaqtida o`quv mehnati va uni tashkil etish.

Birgalikda universitet xonalarida, tajriba maydonlarida, kutubxonalarida o`qituvchi kasbining sirlarini o`rganamiz.

O`qituvchi kasbi oldida barcha bosh egadi. Tanlagan kasbingizga bo`lgan qiziqish sira so`nmasin.

Oliy o`quv yurtlarida islox qilishning asosiy yo`nalishlarida pedagogik kadrlarni tayyorlashni tubdan o`zgartirish. Oliy o`quv yurtlarida tayyorlanayotgan talabalarni oldindan aniqlagan fan va texnika, iqtisodiyot, ishlab chiqarish va soxalarning extiyojiga, hayot talablariga javob beradigan etib tayyorlash vazifasi qo`yildi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlisning birinchi chiqiriq, IX, XIV hamda ikkinchi chaqiriq, I-sessiyasida so'zlagan nutqi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlarida oliy o`quv yurtlarini vazifasi o'z mutaxassisligi bo'yicha har tomonlama chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lgan, mustaqil tafakkur qila oladigan, demokratik davlatimiz siyosatini xalq ommasi va yoshlar o'rtasida targ'ibot qilishga layoqatli, g'oyaviy e'tiqodli, ijodkor va intizomda namuna bo'ladigan barkamol avlod tarbiyalashdan iborat, deb ta'kidlanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan xujjatlarni kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy ma'lumotli yetuk mutaxassislar tayyorlash, ularning sifatli va samarali bilim olishlarini ta'minlash uchun o`quv tarbiya, ilmiy va jamoat ishlarini yuqori talablar darajasiga ko'tarish maqsadida talabalar bilan ta'limning dastlabki bosqichlaridayoq muntazam va astoydil shug'ullanish zarurligini kun tartibiga qo'ymoqda. Ko'pchilik tajriba shuni ko'rsatmoqdaki I-II kurs talabalarini oliy maktab metodlarini juda sekinlik bilan o'zlashtiradi, o'z vaqtini to'g'ri rejalashtira olmaydi, undan unumli foydalana olmaydi. Ba'zan o'zi tanlagan kasb haqida yetarli tasavvurga ega bo'lmaydi.

Shu sababli oliy o`quv yurtlarida jumladan pedagogika yo`nalishlarida fakultetlarning o`quv rejalariga «Mutaxassislikka kirish» mustaqil fani kiritiladi.

Bundan qo'llangan maqsad talabalarini oliy maktab hayotiga tezroq moslashtirish, uning sharoitini o'zlashtirib olishda ko'maqlashish bo'lib, oqibat natijada fanni yaxshi o'zlashtirishlarida yordam berish, ulgurmovchilarning oldini olishdan iborat.

«Mutaxassislikka kirish» fani birinchi kurs talabalarini O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi, o`quv tiplari, ta'limni rivojlantirishdagi dolzarb vazifalar, o`quv yurtining qisqacha tarixi tuzulishi va vazifalari, o`quv jarayonini asosiy formalari, o`quv rejasining mazmuni, ilmiy tekshirish ishlari, o`qish va ilmiy ishlarni bajarishda texnika vositalaridan foydalanish, talabalarining huquq va burchlari, kundalik ish rejimi va mustaqil ishlashni tug'ri tashkil etish, kitob ustida ishlash, tabiyat muxofazasi, bibliografiya texnikasi kabilar bilan tanishtiradi.

Oliy o`quv yurtlarining tarmog'i kengaymoqda universitet ta'limi rivojlanmoqda bilimlarni yangi tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlash boshlab yuborildi, oliy ta'limni ko'p bosqichli tizimga o'tkazish amalga oshirilmoqda.

Abituriyentlar va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baxolashning ilg'or usullari joriy etildi.

Oliy malakaliy ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar sifatida oshgan talabalarga muvofiq asperantura va doktorantura kadrlartayyorlash ishi kengaymoqda. Oliy attestasiya komissiyasi tashkil etildi. Respublikada qariyb 4 ming asperant bo'lib ulardan 69% oliy ta'lim tizimida, 31% ilmiy tadqiqot institutlarida ta'lim olmoqda. Jami ilmiy va ilmiy pedagog kadrlarning 8 % fan doktorlari 37% fan nomzodlari tashkil etadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida 23 institut, 16 fakultet, 4 markaz, 14 malaka oshirish kurslari ishlab turibdi.

Iqtidorli bolalar va o'quvchi yoshlarni qo'llab quvvatlash bo'yicha davlat siyosati sobiq qadamlik bilan olib borilmoqda. Iste'dodli bolalarni izlab topish, ularga ko'maqlashish ularning qobiliyati va iste'dodini o'stirish bo'yicha maxsus fondlar tashkil etildi, qobiliyatli yoshlarni chet ellardagim yetakchi o'quv yurtlari va ilmiy markazlarda uqitish va stajirovkadan o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Fan va ta'lim sohasida xalqaro aloqalar kengayib bormoqda. Kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor isloxlari, zamonaviy taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlash ta'lim tarbiya va o'quv jarayonining tarkibini, bosqichlarini bir biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim tarbiya tizimini tashkil qilishni taqazo etadi.

Buni amalga oshirish yo'llari, vazifalari esa kadrlar tayyorlash milliy dasiturida aniq belgilab berildi.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, Uzbekiston Respublikasining ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy texnikaviy va madaniy extiyojlarini qondiruvchi ustivor soxadir. Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy, shaxsni shaqllantirish va yuqori malakali raqobat bardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart sharoitlar yaratadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlar asosida, turli darajadagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va kuyidagi ta'limturlarini o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim.

Umumiy o'rta ta'lim.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi.

Oliy ta'lim.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

Maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shaqllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish xissini uyg'otadi, uni mantazam ta'lim olishga tayyorlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim 9 yillik (I-IX sinf) o'qishdan iborat umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Ta'limning bu turi boshlang'iya ta'limi (I-IV sinflar) hamda (V-IX sinf) qamrab oladi hamda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish extiyojini, asosiy o'quv ilmiy va umum

madaniy bilimlarni milliy va umum bashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarni, ijodiy fikrlash va atrof muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shaqllantiradi. Umumiy o'rta ta'lim tugallangandan so'ng ta'lim fanlari va ular bo'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishi akademik lisey yoki kasb-hunar qolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi. Akademik lisey-Davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chukur, soxalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishni ta'minlaydi.

Akademik liseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan yo'nalishi bo'yicha gumanitar, texnika, agrar va boshqa soxalar bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shaqllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-hunar qollejlarini jixozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallashi hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Oliy ta'lim-o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat, magistratura) bosqichiga ega.

Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik shartnomaviy asosida amalga oshiriladi.

Bakalavriat-mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan ta'lim muddati kamida 4 yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavriat dasturi tugullagandan so'ng bitiruvchilarga davlat attestasiyasi yakuniga binoan kasb bo'yicha «Bakalavr» darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura-aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavr negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Magistratura davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi, «Magistr» darajasi beriladi. Magistraturadagi taqsim yakuniy kvalifikasion davlat attestasiyasi va magistrlik dissertasiyasini himoya qilish bilan nixoyasiga yetkaziladi. Uzluksiz ta'limning yakunlovchi bosqichi.

2. Darajaga: aspirantura va doktorantura.

Aspirantura-nixoyasiga yetkazilgan magistrlik negizida 3 yil davom etadi. Aspiranturaning maqsadi muayyan mutaxassisliklar bo'yicha oliy kvalifikatsiyani ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni shaqllantirish. Aspirantura akademik va kvalifikasion imtixonlari hamda nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish bilan yakunlanadi. Bu yakunlarga ko'ra tanlangan mutaxassislik bo'yicha «Fan nomzodi» ilmiy darajasi beriladi.

Doktorantura fan nomzodi ilmiy darajasi negizida 3 yil davom etadi, himoya qilish bilan yakunlanadi. Yakuniga ko'ra tanlangan mutaxassislik bo'yicha «Fan doktori» ilmiy darajasi beriladi.

Qo'yishcha kasb ta'limiga qayta tayyorlash va malaka oshirish kiradi.

Uzluksiz ta'limni amalga oshirishi, oliy o'quv yurtini islohotini oshirish shu kundagi ta'lim tizimidagi ko'pgina muammolarni xal etishga yordam beradi.

1. Oliy o'quv yurtini bitirayotganlar qanday talabga javob berishi aniqlanadi.
2. Iste'dodli bolalarni topish, tanlash, qabul qilish, ular yetarli bilim olishlari uchun zamonaviy imkoniyatlar yaratiladi.

3. Oliy o'quv yurtlarida qanday va necha xil mutaxassislik bo'yicha ta'lim berish lozimligi belgilab beriladi.

4. Davr talabi qaysi mutaxassisliklar tayyorlash keraqligini aniqlaydi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Milliy Davlat Hokimiyati organi, vazirliklar hamda ta'lim muassasasi rahbariga yuklatiladi.

1-MAVZU: MUTAXASSISLIGIGA KIRISH KURSINI O'RGANISHNIN GPREDMETI VA VAZIFALARI.

REJA:

1. Mustaqillik kakirish kursini mazmuniva asosiy vazifalari.
2. O'quvchilarni oldidaturgan asosiy vazifalar.
3. Mutaxassislik kakirish kursini amaliy axamiyati.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni muvofaqiyatli hal etish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllanayotgan sharoitda ta'lim-tarbiyani tashkil etishdan ko'zlanayotgan maqsadga erishishi o'quvchilarni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish vazifalari o'qituvchilarning zimmasiga yuklatilgan.

O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zahirada yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ularni ilmiy bilimlari bilan qurollashtirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq bolalarni o'qitish darsidan va ta'lim muassasalaridan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o'tkazish o'ta-onalar, jamoatchilik o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarini olib borish va hokazo. Bularning hammasi o'qituvchidan chuqur bilimga ega bo'lishini o'z sohasini, o'quvchilarni sevishini talab qiladi.

Ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shaxs bu – o'qituvchi. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashni o'zi yetarli emas. Chunki pedagogika nazariyasi bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida qonun-qoidalar umumlashtirilgan uslubiy g'oyalarni ilgari suradi. Biroq ta'lim berish jarayonida pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar ham uchray turadiki, ularni oqilona yechimini topish uchun o'qituvchidan bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik maxorat va ijodkorlik talab qilinadi.

Pedagog OLDIDA TURGAN ASOSIY VAZIFALAR

O'zbekiston davlatining umumiy ta'lim muassasalarida ishlaydigan o'qituvchi:

- pedagogik qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniylik qadriyatlarini dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol shaxs;
- O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqoro;
- ixtisosga doir bilimlarni, psixologik-pedagogik bilim va maxorati shuningdek, nazariy ilmlarni mukammal egallagan mutaxassis;
- o'qituvchilik kasbiga mehr qo'ygan, bolalarni yaxshi ko'radigan, ko'radigan har bir o'quvchisi ulg'ayib, yaxshi odam bo'lishga chin ko'ngildan ishonadigan, uni shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan murabbiy;
- erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli qasbga sodiq bo'lmog'i darkor.

O`qituvchi yosh avlodnn hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, o`quvchilarga ta`lim-tarbiya berishga maxsus tayyorgarlik ko`rgan, kasbiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug`ullanayotgan insondir. Bu ysrda «kasbiga muvofiq» jumlasiga e`tibor berish lozim, chunki nokasbiy pedagogik faoliyat bilan deyarli barcha odamlar shug`ullanadi, ammo faqat o`qituvchigina qachon, qayerda, qanday tarbiya berish kerakligini biladi. Va bu tarbiyaning samarali usullaridan foydalanishni hamda pedagogik qoidalarga mos holda olib borishni uddalay oladi, o`z kasbiy burchini bajarish uchun belgilangan tartibda mas`uliyatni sezgan holda mehnat qiladi.

O`qtuvchilik ishi – inson faoliyatining eng murakkab turlaridan biridir. O`quvchilarni tarbiyalashda ularni o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o`rganish, nihoyatda murakkab. Bunda odamlar o`rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni murakkabligini o`zida aks etgiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Ammo odamlarning aksariyat qismi o`qituvchilik kasbidan chuqur xabardor emas va pedagogik faoliyatining tashqi belgilari bo`yichagina fikr yuritadi. Agar savolni: «o`qituvchining boshqa kasbdagilardan nima farqi bor?», - deb bersak, ko`p narsa oydinlashadi. O`qituvchilik faqatgina fanni bilgan kishining vazifasn emas, u pedagog faoliyatini ham eplay olishi kerak.

Albatta, matematikani o`rgatish faqat matematikani biladigan odamning qo`lidan keladi. Lekin tarbiyalashni bilmagan biliml matematiklar hech narsaga yaramaydigan o`qituvchi bo`lib chiqadilar. «O`qituvchi o`zi nima ish qiladi? Uning pedagogik vazifalarini qanday so`zlar bilan ifodalash mumkin?» - degan savolga javob topishga harakat qilamiz.

Mavzugaoidtestsavollari.

1. “Kadrlartayyorlashmilliydasturi” niamalgaoshirishbosqichlarinianiqlang?

A) 2-bosqich

B) *3-bosqich

S) 4-bosqich

D) 5-bosqich

2. “Ta`limto`g`risidagiqonun” qachonqabulqilingan ?

A) 1997 yil 28 avgust

B) 1998 yil 29 avgust

S) * 1997 yil 29 avgusi

D) 1998 yil 27 avgust

3. «Mutaxassislikkakirish» faniningasosiyvazifalarinechtavavlar.... ?

A) Asosiyvazifasi 4 taularquyidagilar:

1.Sizlarnio`qituvchiningkasbiyfaoliyatiningilmiyasoslaribilantanishtirish,

2.Oliyo`quvyurtlaridao`quvmehnatibilanmadaniyatini egallashingizgako`maqlashish. 3.

Keyingio`quvsemestrlaridaboshlanadiganpedagogikamliyotnio`tashingizgayordamlashadi. 4.

Asosiysi-mustaqilravishdao`zingizdao`qituvchishaxsigakerakbo`lganfazilatlarinishaqlantirishga, shuningdeko`z-o`zinitarbiyalashvao`zustidaishlashgao`rgatish.

B) asosiyvazifasi 3 taularquyidagilar:

1. Fanhaqida umumiy tushuncha berish. 2. Fannio'rganishga qo'yilgan talablar bilan tanishtirish. 3. Fannio'rganishga qiziqish uyg'otish, tanlagan kasbini to'g'ri tanlaganiga ishonch uyg'otish.

S) Asosiy vazifasi 2 taular quyidagilar:

1. YAngi tipdagi o'quv muassasalarida faoliyatini taqdim etish.

2. O'zbekiston Respublikasida o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini o'rganish, munosabatlarni taqdim etish, qiziqish uyg'otish.

D) Asosiy vazifalari 3 taular quyidagilar:

1. Pedagogik qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon; 2. Milliy madaniyat va umuminsoniylik qadriyatlarini dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol shaxs; 3. O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro;

4. «Mutaxassislik kiritish» fanimaqsadinecha ... ?

A) 4 ta

B) 5 ta

S) 3 ta

D) 2 ta

5. Bugungi kun mutaxassisi ?

A) moxir tashkilotchi, jamoani boshqaradi, jamoat a'zosi sifatida tanib boshqaradi, o'z o'rtog'larining maslahatiga quloq soladi, qo'lg'akiritilgan yutuqlarga tanqidiy yondashadi

B) mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish maslagini amalga oshiradigan xodim hisoblanadi

S) tadbirkor, o'z ishining ustasi,

D) barcha javoblarni to'g'ri

2-MAVZU: PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA MUTAXASSISLIGINI TAYYORLASH UCHUN ZARUR BO'LGAN ME'YORIY XUJJATLAR.

Reja:

1. Ta'lim turlarini axtarish.

2. Pedagogika va psixologiya mutaxassisligini o'rganish.

3. Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi g'azari bo'lgan me'yoriy xujjatlar.

Fuqarolarning konstitutsion huquqlaridan biri ta'lim olish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, mehnat qilish.

Bu g'oyalar milliy-nazariy umumlashmalar, kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jam'iyat, uzluksiz ta'lim, fan ishlab chiqarish uyg'unlashganda amalga oshadi.

Quyidagi ta'lim turlari mavjud:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi;

- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish;
- oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish
- maktabdan tashqari ta'lim;

Umumta'lim – maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi. Kasb-hunar ta'limi – o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'limni, kadrlar tayyorlash ta'limini o'z ichiga oladi.

«Didaktika» so'zi grekcha «didaktikos» so'zidan kelib chiqib, o'qitaman, o'rgataman degan ma'noni bildiradi. Bu termin adabiyotlarda XVII asrlardan keng qo'llanila boshlandi. O'sha vaqtda buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy o'zining asarini «Buyuk didaktika» deb atadi.

Pedagogika fanida didaktika o'qitish va ta'lim nazariyasi demakdir. Didaktika o'qitishning qonuniyatlarini o'rganib, u «nimani o'rgatish» va «qanday o'rgatish» degan savollarga javob beradi.

Barcha ta'lim muassasalarida o'qitish, avvalo, o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham didaktika barkamol shaxsni rivojlantirishning ajralmas qismi bo'lgan aqliy tarbiya mohiyatini ochib beradi.

Didaktika hamma predmetlar uchun xarakterli bo'lgan o'quv jarayonining umumiy qonuniyatlarini ochib beradi.

Bilim - insoniyatning umumlashtirilgan tajribasi.

Bilim - borliqdagi narsa va hodisalarni, tabiat va jamiyat qonunlarini anglab yetish mahsulidir.

Didaktikaning bahs mavzusi o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini, ularning vazifalarini, ular o'rtasidagi munosabatlarni o'quv jarayonining ishtirokchilari sifatida qarab chiqish hisoblanadi.

O'qitish jarayonining mohiyati bilish jarayonining qarama-qarshiligidadir.

O'qitish jarayoni deganda o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishga, ularning rivojlanishi va tarbiyasiga qaratilgan umumiy maqsadni amalga oshirish uchun o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi murakkab mehnati jarayoni tushuniladi.

Didaktika pedagogikaning bir qismi sifatida - umumiy didaktika va metodika, xususiyl didaktikaga ajratib o'rganiladi.

Umumiy didaktika murakkab nazariy va amaliy muammolarni hal etadi hamda o'qitish jarayonining qonuniyatlarini ochib beradi, ta'limning mazmunini belgilaydi, samarali o'qitish metodlari va ularni yo'lga qo'yish shakllarini ishlab chiqadi, hozirgi zamon texnika vositalaridan ta'lim jarayonida unumli foydalanish va boshqa masalalarni hal etishni maqsad qilib qo'yadi.

Turli ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarda o'qitishning vazifalari va xarakteriga nisbatan o'ziga xos qarashlar yuzaga kelgan. Bu esa mavjud jamiyatga xos bo'lgan ma'lum o'quv jarayonining tiplari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

- Masalan:
- a) dogmatik tipi;
 - b) tushuntiruvchi tipi;
 - v) tadqiqot-muammoli tipi.

O'quv jarayonining **dogmatik tipi** - quruq yodlash xarakteriga ega.

Tushuntirish tipi. O'quvchi, avvalo, materialni tushunsin, keyin yodlab olsin. O'quv jarayonining takomillashgan bu tipi bilimlarni egallashda dogmatizmning yo'qotilishiga sababchi bo'ldi. O'tgan asrning 30-50-yillarida bizning maktablarga o'quv jarayoni tushuntiruvchi o'qitish tipi mustahkam kirib bordi. Lekin bu tipning ham o'ziga xos kamchiliklari bor edi. Hozirgi sharoitda har bir odamning mehnati ijodiy xarakter kasb etib borayotgani sababli o'qitishning tushuntiruvchi tipida egallangan bilimlar kamlik qilar edi. Shuning uchun ham keyinchalik umumta'lim maktablarida o'qitishning tadqiqot-muammoli tipi keng joriy etib borilmoqda.

Muammoli o'qitish o'quvchilarda bilish jarayonini mustaqil va ijodiy, izlanadigan tarzda yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

Umuman olib qaralganda, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi yosh avlodni ilmiy bilimlar, hayotiy zarur ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish ekan, avvalo, biz ana shu tushunchalarning o'zini anglab yetishimiz zarur bo'ladi.

Ilmiy bilimlarni egallash muayyan dalillarni, turmushdagi predmetlararo o'zaro bog'lanishlarni, biri ikkinchisini taqozo etishini idrok etish, faxmlash, ularni izohlay olish, mustahkam o'zlashtira olish va xulosalar chiqara olish demakdir.

Ko'nikma mehnat qilish yo'llari va usullarini bilib olish, o'z bilimlarini amalda qo'llay olish demakdir.

Malaka avtomatlashgan ko'nikmadir.

Ta'lim ikki tomonlama jarayondir (o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faoliyatga asoslangan jarayon hamda o'qitish va o'qish jarayonlaridan iborat).

O'qitish, bu - o'qituvchining o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malaka berish, yangi haqiqatlarni ocha bilishga qodir bo'lgan ijodiy, mantiqiy tafakkurni tarbiyalash jarayonidir.

O‘qish esa o‘quvchilarning o‘qituvchi tomonidan berilgan bilimlarini, ko‘nikmalarini o‘zlashtirishlari, shu orqali o‘zlarida bilish qobiliyatini, fikrlash va harakatlarni tarkib toptirish jarayonidan iborat.

Bu ikkilasi faol, bir-birlarini taqozo etadigan jarayonlar hisoblanadi.

Mavzuga oid testsavollari.

1. O‘zbekistonda axloqni tarbiyalash qanday amalga oshiriladi?

A) Oliy ta‘lim muassaslarida

B) oilada

S) maktabgacha ta‘lim muassasalarida

D) Maktabgacha tarbiya muassasalarida, oila, maktab va mexnat muassasalarida hamkorligida

2. O‘qituvchi o‘ldirgan asosiy vazifalar bu ?

A) pedagogik qobiliyatli, ijodkor, ish bilan boglangan,

milliy madaniyat va umuminsoniylik qadriyatlarini dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan,

diniy ilmlardan ham xabardor, ma‘naviy barkamol shaxs; ixtisosga doir bilimlarni, psixologik-

pedagogik bilim va maxoratishningdek, nazariy ilmlarni mukammal egallagan mutaxassis;

erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, o‘doblilqasbgasodiqb O‘lmog‘idarkorvaxokazo

B) Xammasini, jumladan o‘quv jarayonini xam ilmiy asosdatashkileladigan

S)

O‘qituvchining yoshavlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantiradigan

D) Ta‘lim muassasalarida ta‘limni tarbiya ishlari tashkil etish va amalga oshirish

3. Ta‘lim turlari nisanang ?

A) 10 ta

B) 9 ta

S) 5 ta

D) 8 ta

4. Oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim asosiy shakllarini to‘liq ko‘rsating ?

A) leksi, seminar

B) leksiya seminar, amaliy va laboratoriyamashg‘ulotlari, maslahat va yig‘ilishlar, diplom ishlari

S) leksiya seminar amaliy va laboratoriya

D) leksiya seminar, amaliy va laboratoriya kurs va diplom ishlari

5. SHaxsning o‘zigaxos xususiyatlariga nimalar kiradi?

A) Sezgi, xisiot, iroda

B) Aktivlik, ijodiylik

S) Idrok, hayol

D) Xarakter, temperament, qobiliyat

3-MAVZU: TA‘LIM JARAYONI NI YO‘LG AQO‘YISHNING ASOSIY SHAKLLARI.

REJA:

1. Ta‘lim jarayoni ni yo‘lg aqo‘yishning usullari.

2. Ta'limjarayoniniyo'lgaho'yishningamaliyaxamiyati.

3. O'quvjarayoninio'zlashtirishningturlari.

Ma'lumki jamiyatning iqtisodiy-siyosiy barqarorligi, uning ravnaqi fuqorolarning aqliy va ahloqiy salohiyatiga borliq. Jamiyatning ma'naviy yuksalishida, uning jahon hamjamiyatlariga qo'shilishi, bozor iqtisodiyotining shakllanishini ta'minlaydigan huquqiy demokratik jamiyat qurishda milliy dastur muxim rol o'ynaydi.

I. Karimov – Insonning kamol topishi har tomonlama mukammal bo'lishi va farovonligi ularning manfaatlarini ro'yobga chiqarishiniig sharoitlarini va ta'sirchan mexaniqlarini yaratish eskirgan tafakkur andozalarini o'zgartirish isloxlarning bosh maqsadi ekanligini tushuntiradi.

(Kadrlar tayyorlash milliy dasturi)

Xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy, qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlash Respublika taraqqiyotini muxim shartlaridan iboratdir.

Mana shu ma'noda butungi mustaqillik sharoitida kadrlar tayyorlashinng milliy madaniyatining ro'yobga chiqarish har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan ta'lim-tarbiyani ongli ravishda idrok eta oladigan davlat – jamiyat va oila javobgarlik xissini tuya oladigan fuqorolarni tarbiyalashni nazarda tutish bilan birga, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy sarqitlardan xalos qilish rivojidan jamiyatlar darajasida javob beruvchi yuqori darajada malakali kadrlar tayyorlash.

(IX sessiya) Oliy majlis 1997 yil «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qarori qabul qilindi.

Bu dasturni ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biri Respublikamizning demokratik va huquqiy davlat va adolatli fuqorolik jamiyati qurish sari ilgarilab borayotganligi jamiyatda shaxs manfaati va ta'lim ustivorligi qaror topganligi, milliy o'zlikni anglashi o'sib borishi va vatanparvarlik, milliy an'analariga sodiqlik, xalq merosiga hurmati ortib borayotganligidadir.

«Qadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan barcha tadbirlar 3 bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich: (1997-2001):

Pedagogika qadrlar tayyorlash va ularni malakasini oshirish bularni zamon talabi darajasida amalga oshirish. Ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi ma'naviy-axloqiy sifat saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilab beruvchi davlat ta'lim standarlarni yaratish milliy dasturini ro'yobga chiqarish.

Ikkinchi bosqich: (2001-2005):

Majburiy umumiy o`rta, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limiga va shuningdek o`quvchilarni qobiliyatlariga qarab tabaqalashtirilgan ta`limga o`tish hamda ta`lim xizmati ko`rsatish bozorini shakllantirish mexanizmini ishga solish.

Uchinchi bosqich (2005) yil va undan keyingi yillarda to`plangan tajribalarni tahlil etish, umumlashtirish mamlakat rivojlanishi istiqbollarga muvofiq kadr tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta`lim jarayonini axboratlashtirish, jahon axborot tarmog`iga ulangan kompyuter axborot tarmog`i bilan to`liq qamrab oladi.

Mavzuga oid test savollari.

1. SHaxs rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillar qaysi javobdano`g`ri ko`rsatilgan?

A) Etuklik, ko`po`qish

B) Irsiyat, muhit, ta`lim-tarbiya

S) Jamoa, axborot almashishi

D) Bilim, malakalar

2. Aqliy tarbiya nimalarni kiradi ?

A) Aqliy tarbiya tabiatdagi berilgan aqliy kuch, sezgi, ruhiy holat, biluvchanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirish natijasida insondagi fikr yuritib, oldigamaqsad qo`yaqolish hamdano`zlangan maqsadga etish qobiliyatini shakllantirish

B) Aqliy tarbiya aqliy kuch, sezgi, ruhiy holat oldigamaqsad qo`yaqolish hamdano`zlangan maqsadga etish qobiliyatini shakllantirish

S) Aqliy tarbiya ko`zlangan maqsadga etish jarayonida hosil bo`lgan qobiliyat

D) Aqliy tarbiya aqliy kuch,

3. Diplomishlarining xajmi minimalarasi deb belgilanadi ?

A) fanlar va mavzularga qarab

B) Talabani xoxishiga qarab

S) adabiyotlako`lamiga asosan

D) ushbu mavzudagi olibborilgan tadqiqotlako`lamiga qarab

4. "Metod" so`zining ma`nosi ?

A) grekcha meto hodos - biron-bir narsani bilish yo`lida gani.

B) grekcha meto hodos - biron-bir narsani o`rgatish

S) grekcha meto hodos - yo`l - yo`riq

D) grekcha meto hodos - biron-bir narsani o`rganaman

5. O`qitish metodlarini xarakterib ?

A) axborot va boshqaruv; o`qish, o`rganish, o`rgatish, nazorat va o`z-o`zini nazorat qilish vazifalarini bajaradi.

B) axborot va boshqaruv;

S) boshqaruv; o`qish, o`rganish, o`rgatish

B) axborot va boshqaruv; o`qish, o`rganish, o`rgatish, nazorat va o`z-o`zini nazorat qilish vazifalarini bajaradi

4-MAVZU: TALABA MUSTAQIL ISHLASHINI TASHKIL ETISH TALABALARNING O`QUV –USLUBIY, ILMIY –TADQIQOT ISHLARI

Reja:

- 1. Talabalar mustaqil ishlashini tashkilotish.**
- 2. Talabalarda o`quv bilish faoliyatini o`rganish va amalga oshirishning ahamiyati.**
- 3. Talabalarining o`quv ilmiy ishlari haqida tushuncha.**

Talaba bilish jarayonida mustaqil ishlashning ahamiyati Kasb va darslik ustida ishlash. Mustaqil ishlashning asosiy ko`rinishlari. Mustaqil tarzda konspekt tuzish. Referat, doklad, kurs ishlari tayyorlash. Mustaqil ishlashda o`zaro fikr almashinishi, munozara, debat usullarining ahamiyati.

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishish xalq ta'limi muassasalarining oldiga yangi demokratik fuqarolarining shakllantirishdek muhim vazifani qo`yadi.

Ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish bosqichida turgan jamiyatimiz hozirgi kunda o`rta ta'lim maktablarining faoliyatini takomillashtirish yo`lida pedagogik oliy o`quv yurtlari akademik litsey, kasb hunar kollejlari maktablariga malakali kadrlarni milliy istiqlol g`oyasiga sodiq yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni yanada yaxshilash muammosini qo`ymoqda. Bu esa hozirgi vaqtda oliy o`quv yurtlarida davr talabiga javob beradigan yosh mutaxassislarini faqat nazariy bilimlarni chuqur o`rgangan holda emas, balki ayni vaqtda buyuk insoniy fazilatlarga ega bo`lgan, muomalaga kirisha oladigan, az ishini puxta egallagan mohir mutaxassislar etib tayyorlashga katta e'tibor qilishni talab etadi. Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi bo`ljak o`qituvchilarni yuksak pedagogik mahorat va texnika ko`nikmalari bilan qurollangan madaniyatli shaxs sifatida tayyorlash kerakligini yana bir bor ta'kidlab bermoqda.

Talabalarining o`quv –uslubiy, ilmiy –tadqiqot ishlari

Metod - grekcha metohodos - biron-bir narsani bilish yo`li degani. Metod, umuman olganda, ma'lum maqsadga erishish uchun yo`naltirilgan faoliyat usullari yig`indisidir.

O`qitish metodlari muammosi didaktikadagi eng asosiy, dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bu masalaning to`g`ri hal etilishi orqali o`qitishning barcha sohalari samaradorligi ta'min etiladi. Yosh, endi ish boshlayotgan o`qituvchi o`quvchilarni bilmaslikdan bilishga tomon yetaklash borasida katta qiyinchiliklarga uchraydi. Qanday yo`l, usul yoki vosita bolalarning

chuqur, mustaqil, keng qamrovli bilim olishini ta'minlaydi, ijodiy fikrlash sari yetaklay oladi, mustaqil bilish faoliyatini yo'lga qo'ya oladi? Bu masalani o'qitish metodlari hal etadi.

Shunga ko'ra, o'qitish metodlari deb, **o'qituvchi** va o'quvchilarning ta'lim vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan birgalikdagi faol faoliyatini yo'lga qo'yishga xizmat qiladigan yo'l va usullar yig'indisiga aytiladi.

O'qitish metodlari xarakteriga ko'ra ikki tomonlama ko'rinishga ega. U:

1) axborot va boshqaruv;

2) o'qish, o'rganish, o'rgatish, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish vazifalarini bajaradi.

Har bir metod qator elementlardan iborat bo'lib, ular usullar deb ataladi va u ushbu metodning foydali ish koeffitsientini, uning samaradorligini oshiradi.

Masalan, mashq metodida o'quvchi bajargan ishlarni tahlil etish, xatolarni ko'rsatish va h. k. Bu o'rinda mashq - bu metod; tahlil etish, xatolarni ko'rsatish usullardir.

Demak, metod qator samarali usullar yig'indisi o'laroq, bir qator didaktik vazifalarni bajaradi: yangi material bilan tanishtiradi, bilim va ko'nikmalarni egallash, ularni mustahamlash, amaliyotda qo'llash operatsiyalarini bajarishda qo'llaniladi.

O'qitish metodi hamma vaqt ikki muhim vazifani: boshqaruvchilik va ijrochilik vazifalarini bajaradi.

O'qitish metodida boshqaruvning o'ziga xos tomoni shuki, o'qituvchi boshqara borib, o'quvchi faoliyatining ichki va tashqi tomonlarini ham bilishi zarur.

Ko'pincha, o'quvchi faoliyatining tashqi tomoni (o'quvchi kuzatadi, o'qiydi, eshitadi, ma'lum vazifalarni bajaradi) jarayonning ichki tomoni munosabatini bildirmaydi, o'quvchi faoliyatini anglash, tushunib yetish, unga bevosita ta'sir ko'rsatishda aniq namoyon bo'lmaydi.

Shu jihatdan qaralganda, o'qitish metodlari oldida jarayonning ichki mohiyati, sifat tomonlarini ko'ra bilish, o'quvchida faol, mustaqil faoliyatni uyg'ota olish, o'sha materialni o'zining ehtiyojiga aylantirish muammosi turadi. Buni hal etishning pedagogik mohiyati o'qitish metodlari oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'qitish metodlarining o'ziga xos yana bir tomoni o'quvchi munosabati, qarashlarining o'zgarib turishi bilan va, shunga ko'ra, jarayonni korreksiyalash bilan bog'liq.

O'qitish metodlarining yana bir o'ziga xosligi bolani bilmaslikdan bilishga qarab yetaklay borib, keyinchalik uni mustaqil *bilish* faoliyatini tashkil etishga o'rgatib borishdadir. Xuddi shu masala o'qitish metodi oldidagi eng asosiy muammo hisoblanadi.

O'qitish metodlarining ta'sirchanligini oshirish uchun birqator vositalar tizimixizmat qiladi.

Vosita deganda, o'quv jarayonini jihozlashga, uni takomillashtirishga, ta'sirchanligini oshirishga yordam beradigan barcha narsa, hodisalar, ta'sir jarayonlari va boshqalar tushuniladi.

Masalan, kitoblar: (darslik, qo'llanmalar, programmalashtirilgan o'quv qo'llanmalari, daftarlar va h. k.); ko'rgazmali qurollar; maxsus jihozlangan kabinet, laboratoriya xonalarni; texnik vositalar; o'qituvchi obrazi va b. q. Bular kompleks holda u yoki bu metod samaradorligini oshirishga yordam beradi.

II. O'qitish metodlarini guruhlash va tanlashga nisbatan qo'yiladigan pedagogik talablar

Hozirgi zamon didaktikasi, umumiy tan olingan o'qitish metodlari klassifikatsiyasiga ega emas. Shuning uchun o'qitish metodlarining ko'plab imkoniyatlari mavjud bo'lganligi uchun, ularni bir nechta asoslarga ko'ra guruhlash mumkin:

1. O'qitish metodlarini ularning uzatish manbalari va axborotlarni qabul qilish xarakteriga ko'ra guruhlash (so'z vositasida o'qitish, ko'rgazmali va amaliy o'qitish metodlari) mumkin (S.I.Petrovskiy, Ye.Ya.Golant).

2. Ta'limning mazkur bosqichida hal etilishi mumkin bo'lgan didaktik vazifalarga ko'ra guruhlash mumkin:

- Bilimlarni o'zlashtirish metodlari.
- Ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari.

• Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va tekshirish metodlari (M. A. Danilov, B. P. Yesipov).

3. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilar bilish faoliyatining xarakteri bilan bog'liq o'qitish metodlari:

- Tushuntirish-illyustrativ (axborot-retseptiv).
- Reproduktiv, muammoli, qisman tadqiqot (evristik).
- Ilmiy-tadqiqot xarakteridagi metodlar (M. N. Skatkin, I. Ya. Lerner).

4. O'qitish metodlarini o'rganish o'qish metodlari bilan bog'liq holda guruhlanadi:

- Axborot-umumlashtiruvchi va bajaruvchi.
- Tushuntirish-reproduktiv.
- Instruktiv-amaliy; tushuntirish-qo'zg'atuvchi va qisman izlanuvchi.

5. Bir vaqtinint o'zida uzatish manbai va mantiqiy asosiga ko'ra (N.M.Verzlin); uzatish manbai va o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi mustaqillik darajasiga ko'ra (A. N. Alekseyuk, I. D. Zverev) tavsiflanadi.

O'qitish metodlarini bunday turlicha guruhlashga yondashish ular to'g'risidagi bilimlarni differensiyalash va integratsiyalashning tabiiy jarayonini ko'rsatadi.

Odatda o'qitish metodlarini tanlash va qo'llash vaqtida quyidagi kabi bir qator pedagogik talablarga rioya qilish zarur:

1. O'qitish metodlari ta'lim prinsiplariga mos kelishi kerak.
2. O'qitish metodlari ta'lim-tarbiya maqsad va vazifalariga bog'liq holda tanlanishi zarur.
3. O'qitish metodlari ta'lim mazmuniga, o'tiladigan material xarakteriga ko'ra tanlanadi.
4. Ushbu metodlar o'quvchilarning bilish, o'quv imkoniyatlariga mos kelishi (yoshi, jismoniy, ruhiy)ga; tayyorgarlik darajasiga, sinf jamoasining o'ziga xosligiga ko'ra tanlanadi.
5. Mazkur sharoit va o'qitishga ajratilgan vaqtga bog'liq.
6. O'qituvchining imkoniyatlariga ya'ni, to'plagan tajribasi, nazariy va amaliy tayyorgarligiga, shaxsiy va kasbiy sifatlariga bog'liq.

III. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari

O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari:

1. So'z vositasida bayon etuvchi metodlar; ko'rgazmali metodlar; amaliy metodlar. Bu guruh metodlar materialni uzatish va qabul qilish aspektida qarab chiqiladi.
2. Induktiv va deduktiv metodlar. Bu metodlar mantiqiy aspektida qarab chiqiladi.
3. Reprodukativ va muammoli metodlar (fikrlash aspektida).
4. Mustaqil ishlar va o'qituvchi yordamida ishlash (o'quv faoliyatini boshqarish aspektida);

So'z vositasida bayon etuvchi metodlar (kirish, tushuntirish, xulosa, hikoyalar)

- Hikoya. Tushuntirish.
- O'quv ma'ruzalari.
- Seminar.
- Suhbat va b.q.

O'qitishda ko'rgazmali metodlar:

- namoyish etish metodi:
- illyustratsiya metodi.

O'qitishda amaliyot ishlari metodlari:

- yozma va og'zaki mashqlar;
- laboratoriya ishlari.
- amaliy mashg'ulotlar (ustaxona, ishlab chiqarish sexlarida);

- turli mashinalarda mashqlar bajariladigan amaliy ishlar.

Induktiv va deduktiv metodlar. O'quv materiallarining mazmuni harakat mantiqini, mexanizmini ochishga yordam beradi.

Odatda, induktiv metodda xususiyydan umumiylikka, dalillar, hodisalar tahlilidan umumiy xulosa chiqarishga qarab boriladi. Buning uchun quyidagi variantni ko'rib o'taylik.

1-variant O'qituvchi:	O'quvchi:
Faktlarni bayon etadi. Tajribalarni namoyish etadi. Ko'rgazmali qurollarni ko'rsatadi, turli mashqlarni bajarishni tashkil etadi va asta-sekin umumlashtirishga, tushunchalarni aniqlashga, qonuniyatlarni belgilashga qarab boradi.	Dastlab faktlarni o'zlashtiradi, keyin xulosa chiqaradi va o'quv xarakteridagi umumlashtirishga qarab boradi.
2-variant O'qituvchi	O'quvchi:
O'quvchilarning oldiga muammoli vaziyatni qo'yadi, bunda o'quvchining xususiyydan umumiyga qarab borishiga yordam beradigan mustaqil fikrlashni tashkil etadi.	Faktlar ustida mustaqil o'ylaydi va ma'qul bo'lgan xulosa va umumlashmalar qiladi.
Deduktiv metod	
Bu - umumiylikdan xususiyylikka, teorema, qonun, qoida, xulosalardan faktlar, narsa va hodisa, bevosita jarayonni o'ziga qarab borish usuli.	
O'qituvchi	O'quvchi
Dastlab umumiy qoida, nazariyani bayon etadi va bundan o'quvchini asta-sekin faktlar, konkret holatlarga qarab yetaklab boradi.	Umumiy qonun, qoida, nazariyalarni o'zlashtiradi, qabul qiladi, so'ngra ularning amalda isbotini ko'radi.

Reproduktiv metod

Fikrlashning reproduktiv xarakteri o'qituvchi tomonidan berilayotgan bilimlarni faol qabul qilish va eslab qolishni ko'zda tutadi. Reprodktiv metodning moddiy asosi hisoblangan so'z vositalari, ko'rgazmali va amaliy metodlarsiz ushbu metodni amalga oshirib bo'lmaydi.

O'qituvchi hikoyasini reproduktiv tarzda qo'yganda faktlar, dalillar, tushunchalarni aniq tayyor holda shakllantiradi, asosiylariga e'tibor beradi va ularning puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Ma'ruza vaqtida o'qituvchi eng muhim tushuncha, ilmiy ma'lumotlarga alohida e'tibor beradi, doskada alohida yozuvlar tashkil qiladi.

Reproduktiv tarzda tashkil etilgan suhbat jarayonida o'qituvchi o'quvchi ilgari egallagan faktlar, bilimlarga tayanadi, lekin qandaydir taxmin, g'oyani muhokama qilishni tashkil etmaydi.

Ko'rgazmali reproduktiv metod axborotlarning o'quvchi tomonidan faol va puxta o'zlashtirilishini tashkil etish maqsadida qo'llaniladi. Bunga V.F.Shatalov tomonidan foydalanilgan tayanch konspektlari misol bo'la oladi. Undan o'quvchi izchillik bilan eslab qolishi kerak bo'lgan yorqin faollashtiruvchi raqam, so'z va chizmalar o'rin egallagan.

Reproduktiv xarakterdagi amaliyot ishlari shu tomoni bilan ajralib turadiki, bunda o'quvchilar oldingi bilimlarni mustaqil amaliyotga tatbiq etish bilan shug'ullanmay, oldingi egallangan ko'nikma va malakalarni bir necha bor takrorlashni mashq qiladi.

Umuman olganda, o'qituvchining reproduktiv metodi o'quvchilarda tafakkur, mustaqillik, ixcham fikrlash, izlanuvchanlik ko'nikmalari shakllanishiga yordam bermaydi. Ushbu metodni ortiqcha qo'llash bilimlarni egallashda formalizmga olib keladi.

Muammoli-tadqiqot metodlari

Bu o'rinda o'qituvchi quyidagi usullardan foydalanadi:

Muammoli holat yaratadi. Masalan, savollar qo'yadi, masalalar tavsiya qiladi, tajriba topshiriqlarini beradi, vaziyat yaratadi.

Ushbu muammoli holatni yechishda ko'pchilik muhokamasini tashkil etadi. Xulosalar to'g'riligini tasdiqlashga erishadi. Tayyor muammoli topshiriqlarni ilgari suradi. O'quvchilar o'zlari oldin egallagan bilim, tajriba, ko'nikma va malakalarga tayanib, muammoli vaziyatlarni yechishga kirishadi. Muammoli-tadqiqot metodi amaliyotda so'z vositalari, ko'rgazmali, amaliy ishlar metodlari yordamida qo'llaniladi.

Masalan, materialni muammoli tarzda bayon etish; muammoli va evristik suhbat; muammoli laboratoriya va amaliyot ishlarini tashkil etish.

O'qituvchi o'quv materialini muammoli usulda hikoya qilish va ma'ruzani muammoli tashkil etish orqali mashg'ulot davomida isbotlab, umumlashtirib, faktlarni tahlil etish orqali

tinglovchilar fikrini yetaklab, ularni shu jarayonda faol, muhokama, mulohaza yuritish faoliyatini tashkil etadi.

O'qitish metodlarini muvaffaqiyatli qo'llash shartlari.

Qaysi vazifalar yechimida bu metodlarni, ayniqsa, muvaffaqiyatli qo'llash mumkin?

1. So'z vositasida bayon etuvchi metodlarni - o'quvchida nazariy va amaliy bilimlar shakllangan bo'lsa.

2. Ko'rgazmali metodlarni - kuzatuvchanlikni rivojlantirish va o'rganilayotgan masalaga e'tiborni oshirish uchun.

3. Amaliy metodlarni - amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun.

4. Reproduktiv metod - bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun.

5. Tadqiqot metodi - mustaqil fikrlashni, izlanish ko'nikmasini, ishga ijodiy yondashishni rivojlantirish uchun.

6. Induktiv metodni - umumlashtira bilishga o'rgatish, induktiv fikrlashga o'rgatish uchun.

7. Deduktiv metodni - voqea va hodisalarni tahlil qila olish ko'nikmasini rivojlantirish uchun.

8. O'quv faoliyatida - mustaqillikni rivojlantirish uchun o'quv mehnati ko'nikmasini shakllantirish maqsadida qo'llash mumkin.

O'qitish metodlarini optimal darajada tanlash bo'yicha bir nechta mashq

1-savol. Mavzuni o'rganishni o'quvchilarning mustaqil ishi metodi orqali amalga oshirsa bo'ladimi?

Mumkin , agar:	Mumkin emas, agar:
- mazmun yetarli darajada sodda bo'lsa; - o'quvchi mustaqil ishlashga tayyor bo'lsa	- material o'ta murakkab bo'lsa; - darslik bilan ishlashga o'quvchi tayyor bo'lmasa

O'qituvchi mustaqil ishlash metodini tanlaydi yoki boshqa metodni tanlashda davom etadi.

2-savol. Bu mavzuni tadqiqot metodi orqali o'rganishni tashkil etsa bo'ladimi?

Mumkin , agar:	Mumkin emas, agar:
• material o‘rtacha murakkablikda bo‘lsa; • bu mavzuni o‘rganish uchun muammoli tarzda muhokama qilishga vaqt bo‘lsa; • o‘quvchi muammoli holatlarni yechishda mustaqil tayyorgarlikka ega bo‘lsa	• material o‘ta murakkab bo‘lsa; • o‘quvchilarda muammoli holatni hal etishga yetarli bilim bo‘lmasa; • shu mavzu uchun ajratilgan vaqt muammoli vaziyatni hal etishga yetmasa

• Qiziqtiruvchi metodlar - bilish o‘yinlari. Masalan, o‘yin sayohat, elektron viktorina.

• Hayotiy holatlarni tahlil etish: tarix, jamiyatshunoslik darslarida. Masalan, ilmiy-texnika jarayoni sizning tuman, shahringizga qanday ta’sir ko‘rsatdi? (tahlil etish).

• O‘qishda muvaffaqiyatga erishish holatini yaratish. Bunda rag‘batga muhtoj yoki qiynalib qolgan bolalarni murakkab holatdan olib chiqib ketish uchun unga kuchi yetadigan topshiriqlarni berib, keyinchalik topshiriqlarni murakkablashtirib borish.

IV. O‘quv faoliyatini rag‘batlantiruvchi va qarashlarni chuqurlashtiruvchi metodlar

Inson faoliyatining tuzilishini turlicha tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, hamma vaqt unda motivatsiya komponenti zarurligi namoyon bo‘ladi. Agar shaxsda kuchli, yorqin, chuqur bilim olishga ehtiyoj bo‘lsa, har qanday faoliyat shu vaqtda samarali va sifatli natija beradi. Bu holatda shaxs har qanday qiyinchilik, to‘siqlarni, murakkab vaziyatlarni ham yengib, maqsad sari intiladi. Xuddi shu narsa o‘quv faoliyatiga ham tegishlidir. Agar o‘quvchida o‘qishga nisbatan ijodiy munosabat, bilim olishga kuchli intilish bo‘lsa va u doimiy ehtiyojga aylansa, o‘quv jarayonining natijasi yuqori bo‘ladi. Buning uchun butun o‘qitish metodlari boyligini nafaqat bilimlarni yetkazish, balki motivlarni chuqurlashtirishga ham sarflash kerak.

Rag‘batlantiruvchi metodlarning asosiy ko‘rinishlari ikki katta guruhga bo‘linadi:

1. O‘quvchilarda bilimga qiziqishni shakllantiruvchi metodlar.
2. O‘qishda burch va mas’uliyatni oshiruvchi metodlar.

O‘quvchilarda bilimga qiziqishni shakllantirish uchta majburiy holat bilan xarakterlanadi:

1. Faoliyatga nisbatan ijobiy hissiyot.
2. Ushbu hissiyotning bilish tomonlari.
3. Bevosita faoliyatning o‘zidan chiqayotgan motivlar.

Bu o'rinda ilg'or o'qituvchilar axloqiy-hissiy tuyg'ularni uyg'otadigan usullarni qo'llaydilar. Hissiy tuyg'u, hayajonlanish, ruhiy qiynalish hissini uyg'otadigan holatlarni dars mazmuniga kiritish. Qiziqtiruvchi holatlarni yaratish. Masalan, fizikada, «Fizika hayotda», «Fizika ertakda», va b.q., yoki badiiy adabiyotlardagi obrazlar talqini.

Turli didaktik, kiziqarli o'yinlar holatini kiritish ham o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Burch va mas'uliyat hissini uyg'otadigan metodlar turkum usullar yig'indisidan unumli foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Masalan, o'qitishning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini tushuntirish. Talablar qo'yish. Uni bajarish har bir o'zbekistonlik yoshning burchi ekanligini anglatish usuli: muvaffaqiyatli ishi uchun mukofotlash va bu o'rinda qilgan xizmatini davlat va ko'pchilik uchun ahamiyatini ta'kidlab o'tish;

Talablarning bajarilishini tezkor tarzda nazorat qilish va zarur holatlarda kamchiliklarni ko'rsatish va tuzatish yo'llarini aytib berish kerak.

V. O'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari

Og'zaki nazorat metodi (ommaviy va yakka tartibda so'rash).

Yozma nazorat metodi (insho, mashq, nazorat ishlari o'tkazish).

Laboratoriya nazorati metodi.

Mashina nazorati metodi.

O'z-o'zini nazorat metodlari (mustaqil tahlil etish, xatolarni topish, ularni tuzatish, oldini olish va b.q.)

Mavzugaoidtestsavollari.

1. Bilimigakizikishmotivikaysikatordakursatilgan?

- A) Xayotdaloyikurinni egallashuchunukish
- B) Uziniurabturgandunyaonibilibolishuchunukish**
- S) YAxshibaxoolishuchunukish
- D) Ukituvchiningmaktovigasazovarbulishuchunukish

2. Ukitishningasosiybajaradiganxizmatikaysijavobdatugrikursatilgan?

- A) Ma'lumot, estetik, tarbiyaviy .
- B) Tarbiyaviy, politexnika, axlokiy
- S) Iktisodiy, ekologik, xukukiy
- D) *SHakllantiruvchilik, mustakil, erkinlik**

3. Darsdao'qitishniyakkaxoldaolibborishning engnatijaliyulikanday?

- A) Pastuzlashtirovchiukuvchilarninamunaliukuvchilargabekitish
- B) Uzlashtirmovchilarbilankushimchadarsolibborish
- S) Ukitishniurtabilimliukuvchigamuvofiklashtirish.
- D) *A'lo, urtavapastukuvchilargaxosisholibborish**

4. Deduktivmetoddeb nimaga aytiladi ?

A) Bu - umumiylikdan xususiylikka, teorema, qonun, qoida, xulosalardan faktlar, narsa va hodisa, bevositajarayonni o'ziga qarab borish usuli.

B) So'z vositasida bayon etuvchi metodlar (kirish, tushuntirish, xulosa, hikoyalar)

S) So'z vositasida bayon etuvchi metodlar; ko'rgazma lime-todlar; amaliy metodlar.

D) Induktiv va deduktiv metodlar. Bu metodlar mantiqiy aspektda qarab chiqiladi.

5. Rag'batlantiruvchi metodlarning asosiy ko'rinishlari bu ... ?

A) O'quvchilarda bilimga qiziqishni shakllantiruvchi metodlar;

O'qishdaburchi va mas'uliyatni oshiruvchi metodlar

B) O'qishdaburchi va mas'uliyatni oshiruvchi metodlar

S) O'quv faoliyatini rag'batlantiruvchi va qarashlarni chuqurlashtiruvchi metodlar

D) O'qishdaburchi va mas'uliyatga erishish holatini yaratish.

5-MAVZU: TALABALARNING BO'SH VAQTLARINI YO'LGA QO'YISH. REYTING TIZIMI VA UNI AHAMIYATI

REJA:

1. Talabalar nibo'sh vaqtlarini o'rganish.

2. Pedagogika kasbiyat tayyorlikni tushuntirish.

3. Reting tizimi va uni ahamiyati.

Malakali kadrlarni talab etayotgan bugungi kunda talaba – yoshlarni pedagogika sohasidagi innovatsion yangiliklardan xabardor etish maqsadga muvofiq bo'lib, bu borada pedagogika oliy o'quv yurtlari va fakultetlarda malakali o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik texnologiya asoslari fanining o'rni va roli benihoyat kattadir. Zero, pedagogik texnologiyaga oid bilim, ko'nikma, malaka hamda tajribaga ega bo'lgan kishigina zamonaviy o'qituvchi bo'lishi mumkin.

Dasturda mamlakatimiz ta'limi oldiga rag'obatbardosh kadrlar tayyorlash vazifasi hamda o'quv yurtlarini ilmiy texnikaviy, moddiy va ma'naviy kadrlar salohiyatini va ta'lim dasturlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish vazifa qilib qo'yildi. Bunday vazifalarni hal etish yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash, dunyoqarashini milliy istiqlol g'oyalari asosida shakllantirish, ularni erkin fikrlaydigan ongli faoliyat yurita oladigan komil inson qilib tarbiyalash bilan belgilanadi. Bu esa talabalarni pedagogik amaliyotini mazmun va sifat jihatdan yuqori darajada o'tkazishni talab qiladi. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qituvchi kadrlarni tayyorlash tizimini sifat jihatdan yangilashni, ularning dunyoqarashini milliy istiqlol g'oyalari asosida shakllantirishni ko'rsata oladigan, ya'ni keng ma'nodagi kasbiy pedagogik tayyorgarlikni nazarda tutadi.

Pedagogik kasbga tayyorgarlikning muqim milliy va nazariy asoslari mavjud bo'lib ularga quyidagilar kiradi; o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va kafolati; o'qituvchi ijodkorligi, izlanuvchanligi va shu asosda o'qituvchi tayyorlash jarayoniga tabaqalashtirilgan yondoshuvning mavjudligi; ta'lim tarbiya jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlik g'oyalari asosida uyushtirish; o'qituvchi shaxsini ijtimoiy axloqiy ma'naviy va umumma'daniy rivojlantirish; pedagogik ta'limning axborot texnologiyasini joriy qilish va undan foydalanishga erishish;

Pedagogik amaliyotni tashkil etish jarayonida pedagog egallagan bilimi va orttirgan tajribasiga tayangan holda faoliyat yuritadi.

Shu asosda talabalar o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash uchun amaliyotga kirishadilar. Talaba bu jarayonda o'zlashtirgan bilimlarini pedagogik amaliyotning ilg'or usullarini egallash va murakkab pedagogik hodisalarni maqsad asosida va kuzatish orqali olib boradi. Talabaning akademik-litsey yoki kasb-hunar kollejlari kadtiga qo'yilishi, pedagogik printsiplar mohiyatini ularga moslashtirish ko'nikmasi, pedagogik texnikani egallash va shu kabilar bo'lg'usi o'qituvchilarni ham nazariy ham amaliy jihatdan tayyorlashni ta'minlovchi jarayon bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek pedagogik amaliyotning ma'naviy-ma'rifiy va insonparvarlik g'oyalari asosida yo'nalganligi nazariy jihatdan asoslanganligi va uni tashkil etishda kompleks yondoshish, uni izchillik va uzluksizlik bilan o'tkazish kabilar pedagogik amaliyotni muvoffaqiyatli olib borilishini ta'minlovchi omillardir.

«Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi va pedagogik texnologiya» kursining assosiy maqsadi. Bo'lg'usi o'qituvchilarda pedagogik fikr va pedagogik mehnat texnologiyasi asoslari shakllantirish ularda iqtidor ko'nikma va malakalarni, o'z-o'zini anglash, o'z-qzini tarbiyalash vatanparvarlik kabi tushunchalarni singdirish: Pedagogika kasbiga munosib bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish: o'zlashtirgan bilim, orttirgan tajribalarni pedagogik amaliyot jarayonida qo'llay olish, mustahkamlash, boyitish: o'rganilgan nazariy bilimlarni amalda sinab ko'rish: Ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy ilg'or tajribalar bilan boyitib borish.

Reyting tizimi va uni ahamiyati

Talaba bilish jarayonida reyting tizimining faoliyati. Reyting tizimini asosiy ko'rinishlari. Reyting tizimida talabani ta'lim jarayonida faoliyatini hisobga olish. Reyting tizimida talaba mustaqil ishlarning o'rni. Reyting ballarini belgilash va uni talaba bilimini baholashdagi ahamiyati

Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

joriy nazorat – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash

va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabanning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratning soni va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda kafedra tomonidan belgilanadi;

yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” (tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun “Yozma ish” yoki OTKS (ob'ektiv tizimlashtirilgan klinik sinov)) shaklida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi qarori asosida ko'pi bilan 40% fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

Talabanning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar (keyingi o'rinlarda namunaviy mezonalar deb yuritiladi) tavsiya etiladi:

a) 86-100 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

xulosa va qaror qabul qilish;

ijodiy fikrlay olish;

mustaqil mushohada yurita olish;

olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

b) 71-85 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mustaqil mushohada yurita olish;

olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

v) 56-70 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'lish.

v) quyidagi hollarda talabaniing bilim darajasi 0-55 ball bilan baholanishi mumkin:
aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; bilmaslik.

Mavzugao idtestsavollari.

1. Nechanchiyildanboshlabmutaxislikkakirishfanifansifatidajoriyetilgan

A) 1973-1974

B) 1974-1975

S) 1975-1976

D) 1980-1981

2. Ma'ruzao'tishdaqandayturlardanfoydalaniladi ?

A) akademikma'ruza, xikoya, suhbatmunozara, ommaviy

B) suxbat

S) xikoya

D) ommaviyxikoya

3.

Ma'ruzanitushunishvaanglashuchunma'lumtartibdagime'zonqabulqilinganbo'libushbume'zonlarqandaybelgilanadi ?

A) 1-kurs 1 daqiqada 20-25 taso'z, 2-kurs 25-30, 3-kurs 30-35, 4-kurs 35-50 so'zbelgilanadi

B) belgilanmaydi

S) 1-kurs 1 daqiqada 30-35 2-kurs 40-50, 3-kurs 50-60, 4-kursdabelgilanmaydi

D) faqatgina 1 va 2 – kurslaruchun 20-40 me'zonbelgilanadi

4. Talabama'ruzaniyaxshio'zlasho'tirishiuchunqandaybosqichlargarioyaqilinadi

A) tinglaydi

B) tinglaydivakonspeklashtiradi

S) tinglaydikonspeklashtiradi, yozibolinganma'ruzanio'rganadi, vao'zima'ruzaqilishgatayyorgarlikko'radi

D) faqatkonspeklashtiradi

5. Kursishlarimavzularikimtomonidantayinlanadi ?

A) ilmiyrahbarboshchiligida

B) talabatomonidan

S) kursloyixasibajarilishigavafangaqaraboldindanbelgilanadi

D) ilmiyrahbarvatalabaxamkorligida